


“TASDIQLANGAN”

**“Toshkent Invest kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
yagona muassisining
2023-yil 10 - noyabr 7 -sonli qarori bilan**

**Toshkent shahar hokimi
vazifasini bajaruvchi**

Sh.Umurzakov



**“Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining
“Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”**

Nizom

Toshkent – 2023 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida” Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari hamda “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati Ustavi, shuningdek Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) Kuzatuv kengashi maqomini, Kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash tartibini, vazifalarini, huquq va majburiyatlarini belgilaydi va faoliyatini tartibga soladi.

3. Kompaniyaning Kuzatuv kengashi Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonunchilik, Kompaniyaning Ustavi va ichki me‘yoriy hujjatlari bilan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

4. Kompaniya Kuzatuv kengashi boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman Kompaniyaning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

5. Kompaniya Kuzatuv kengashi o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik, Kompaniya Ustavi va mazkur Nizomga asosan amalga oshiradi.

2-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolatlari

6. Kompaniya Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Kompaniyani rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan choratadbirlar to‘g‘risida Kompaniya Boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Kompaniya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilgan hollar mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Kompaniya aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

Kompaniya Ustaviga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Kompaniyaning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

Kompaniyaning Boshqaruviga to‘langan mukofot va kompensatsiyalar miqdorini yillik aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida oshkor etilishini ta‘minlash;

Kompaniyaning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Kompaniyaning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

Korporativ maslahatchini tayinlash va Kompaniyaning "Korporativ maslahatchisi to'g'risida" Nizomini tasdiqlash;

Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish va Kompaniyaning "Ichki audit xizmati to'g'risida" Nizomini tasdiqlash;

Kompaniya Boshqaruvining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Kompaniya Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Boshqaruvdan olish. Kompaniya Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

Kompaniyaning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

Kompaniyaning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

Kompaniyaning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

qonunchilikda, mazkur Ustavda va Kompaniyaning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Kompaniya tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kompaniyaning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

Kompaniyaning alohida yo'nalishlar bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etish va ularni moliyalashtirish masalalarini belgilash;

Kompaniya va Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini loyihalar va boshqa maqsadlarga yo'naltirish hamda tijorat banklari va xalqaro moliya institutlaridan qarz mablag'larini jalb etish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kompaniya xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;

Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va haq to'lash, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalarini hamda zaruriyatga ko'ra boshqa qo'mitalarni tashkil qilish;

Kompaniya asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

Kompaniya tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, Kompaniya va uning tarkibidagi korxonalar ustav fondiga (ustav kapitaliga) uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish;

Kompaniyaning "Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi to'g'risida", "Audit qo'mitasi to'g'risida", "Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi to'g'risida", "Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi to'g'risida", "Kompaniya aksiyador (ishtirokchi, muassis) bo'lgan tashkilotlar boshqaruv organlarida uning nomidan vakillarini ovoz berish tartibi to'g'risida" Nizomlarini, Axloq kodeksini hamda zaruriyatga ko'ra Investitsiya, Emissiya, Dividend, Axborot, Korrupsiyaga qarshi kurashish, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish va Jamg'armalari to'g'risida siyosatlarini va vakolat doirasidagi boshqa ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;

Kompaniya Ustavida va (yoki) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilangan eng ko'p miqdori chegarasini inobatga olgan holda biznes-rejada belgilangan miqdor doirasida homiylik xayriyalari, beg'araz yordam hamda homiylik (sponsorlik) va sheriklikni ko'rsatish (olish) tartibini va shartlarini bu haqdagi ma'lumotlarni aksiyadorlarga oshkor etish sharti bilan belgilash va bu borada qaror qabul qilish;

Kompaniya Boshqaruvi, ichki nazorat organlari, kollegial organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo'lganda, Kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etishni tashkil etish;

Kompaniya tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

Kompaniyaning yillik moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirish;

Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlashni tashkil etish;

Kompaniyada Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalarini joriy etish va tavsiyalariga rioya etish yuzasidan nazorat qilish.

qonunchilikka, Kompaniyaning Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Kompaniya Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

7. Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Kompaniya Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

8. Kompaniya Kuzatuv kengashining vakolatlarini ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Kompaniyaning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, mazkur Nizomning 10-bandidagi masalalar bundan mustasno.

10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan quyidagi masalalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan Kompaniyaning Kuzatuv kengashi vakolatiga hal qilinishi uchun berilishi mumkin:

Kompaniyaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek Kompaniya Ustaviga Kompaniyaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Kompaniyaning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Kompaniya tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kompaniyaning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kompaniyaning Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisi va a'zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Kompaniyaning Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;

Kompaniyaning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

3-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish

11. Kompaniya Kuzatuv kengashining a'zolari qonunchilik va Kompaniya Ustavida nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

12. Kompaniya Kuzatuv kengashi 5 (besh) nafar a'zodan iborat tarkibda saylanadi. Bunda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari soni 2 (ikki) nafarni tashkil etadi.

13. Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

14. Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Kompaniyaning moliya yili tugaganidan keyin 90 (to'qson) kundan kechiktirmay Kompaniya Kuzatuv kengashiga uning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

15. Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun, qoida tariqasida, tanlov asosida ko'rsatiladi. Bunda, aksiyadorlar tomonidan ham tanlov asosida yoki "xedxanter" ("headhunter") kompaniyalari orqali tanlab

olingan nomzodlar Kompaniya Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoriga ko'rsatish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritilishi mumkin.

16. Kompaniyaning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

17. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kompaniyaning Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

18. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

19. Kompaniya Kuzatuv kengashining a'zosi u saylangan kundan boshlab, Kompaniyaning affillangan shaxsi deb e'tirof etiladi. Shunga muvofiq, u saylangan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay qonunchilikda belgilangan ma'lumotlarni batafsil ko'rsatgan holda o'zining affillanganligi to'g'risida Kompaniyani yozma shaklda xabardor qilishi shart.

20. Kompaniya Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan ularning Kuzatuv kengashi a'zoriga to'g'risida qonunchilik, Kompaniyaning Ustavi va "Kuzatuv kengashi to'g'risida", "Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida" Nizomlari va boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablarini inobatga olgan holda Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vakolatlarining amal qilish muddatiga shartnoma (kelishuv) tuziladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan ularning Kuzatuv kengashi a'zoriga bo'yicha tuziladigan shartnomani (kelishuvni) Kompaniya nomidan Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi yoki Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

21. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi, shu jumladan Kuzatuv kengashi raisi vakolatlari quyidagi asoslarga ko'ra Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

o'z arizasiga ko'ra;

Kompaniya Ustavini qo'pol tarzda buzgan taqdirda;

harakatlari (harakatsizligi) tufayli Kompaniyaga zarar yetkazilgan bo'lsa;

Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bilan tuzilgan shartnoma (kelishuv) shartlarini buzgan taqdirda;

Kompaniya va uning aksiyadorlari manfaatlariga zid ravishda insofsiz va mantiqsiz harakat qilsa;

Kompaniya faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni, shu jumladan insayderlik axborotlarni oshkor etish, ularning uchinchi shaxslar tomonidan o'z maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ysa;

Kompaniya Kuzatuv kengashining majlislarida, Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarning majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmasa;

u tuzilishidan manfaatdor shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirsa;

aksiyador tomonidan uning o'rniga boshqa nomzod ko'rsatilsa;
vakolatlarining amal qilish muddati tugaganda.

22. Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqishni istagan Kuzatuv kengashi a'zosi Kuzatuv kengashi raisi nomiga ariza yozadi va Aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar bo'ladigan Kuzatuv kengashi majlislarida ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi.

4-bob. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar

23. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari benuqson ishchanlik va shaxsiy obro'siga, Kompaniya tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli qarorlarni qabul qilish va funksiyalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

24. Quyidagi shaxslar Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi va Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas:

Kompaniya Boshqaruv a'zolari va Boshqaruv raisi yoki ularning funksiyalarini amalga oshirayotgan shaxslar;

Kompaniyaning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari;

Kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar;
iqtisodiyot sohasida, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar yoxud jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlanganligi mavjud shaxslar;

sud qarorlariga asosan mansab lavozimlarini egallashi cheklangan shaxslar;

korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslar;

harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida o'zi hozirda yoki ilgari ijroiya organi, kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan yoxud hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan ishtirokchisi (aksiyadori) sifatida yoki boshqa usulda nazorat qilgan yoki nazorat qilayotgan yuridik shaxsni to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) va majburiy likvidatsiya holatiga olib kelgan shaxslar;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar;

sanksiyalar ostida qolgan shaxslar.

25. Quyidagi shaxslar ularga mazkur Nizom 23 va 24-bandlari talablari tatbiq etilgan holda Kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha a'zosi bo'lishi mumkin emas:

moliya, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa sohalarda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan;

kamida 2 (ikki) yillik ish tajribasiga ega bo'lmagan;

davlat boshqaruvi organlarining Kompaniyaga nisbatan tartibga soluvchi yoki nazorat (shu jumladan, litsenziyalash organlari va moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi organlar) funksiyasini amalga oshiruvchi xodimlari;

qonunchilik hujjatlarida kuzatuv kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib borishi taqiqlangan shaxslar;

korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lmagan shaxslar, qonunchilik hujjatlariga binoan korporativ boshqaruvchi malaka attestatini olish talab etilmaydigan shaxslar bundan mustasno;

5 (besh) va undan ortiq kuzatuv kengashlarida a'zo bo'lgan shaxslar, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

so'nggi 3 (uch) yil ichida Kompaniyaga va (yoki) Kompaniyaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

Kompaniyaning Ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

26. Quyidagi shaxslar ularga mazkur Nizom 23 va 24-bandlari talablari tatbiq etilgan holda Kompaniya Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

moliya, iqtisodiyot va huquq yoki boshqa sohalarda oliy ma'lumotga ega bo'lmagan;

kamida 10 (o'n) yil ish tajribasiga, shu jumladan, kamida 3 (uch) yillik rahbarlik lavozimlarida, jumladan tarkibiy tarkibiy bo'linma rahbarlik lavozimlarida ega bo'lmagan;

so'nggi 3 (uch) yil ichida Kompaniyada va (yoki) Kompaniyaning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining 5 (besh) yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

Kompaniyaning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijosi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 (ikki ming) baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi 3 (uch) yil ichida Kompaniyaga va (yoki) Kompaniyaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket 6 (olti) yil davomida Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

Kompaniya va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

Kompaniyaning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi 3 (uch) yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi

(ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

Kompaniyaning Ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

27. Kompaniya Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reestrini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

28. Kompaniya Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining mazkur Nizom 26-bandida belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u Kompaniyani va Kuzatuv kengashini bu haqda 2 (ikki) ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda qonunchilik, Kompaniya Ustavi va mazkur Nizomda belgilangan tartibda boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida taklif etiladi.

29. Kompaniya Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan nomzodlarga nisbatan qo'yiladigan talablar qonunchilik, Kompaniyaning Ustavi, "Kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha a'ziligiga tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risida" va "Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga tanlov o'tkazish va nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risida" Nizomlari va (yoki) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarorlari bilan belgilanadi.

5-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi

30. Kompaniya Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

31. Kompaniya Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

32. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi:

Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi;

Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi;

qonunchilikda, Kompaniyaning Ustavi va "Kuzatuv kengashi to'g'risida" Nizomi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan vazifalar va majburiyatlarni bajaradi hamda vakolatlarini amalga oshiradi;

33. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

6-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisi

34. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kompaniya Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zolari, Korporativ maslahatchi va Ichki audit xizmati rahbari, shuningdek

Kompaniyaning 1 (bir) foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari talabiga ko'ra chaqiriladi va ular majlis kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

35. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlislarini tashkil etish va o'tkazish puxta ishlangan reja asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunday reja Kompaniyaning Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari hamda, zarurat tug'ilganda, Ichki audit xizmati rahbari va Korporativ maslahatchidan kelib tushgan takliflar asosida shakllantiriladi va Kompaniya Kuzatuv kengashi qaror bilan tasdiqlanadi.

36. Kuzatuv kengashi har bir a'zosining vazifalari Kuzatuv kengash raisi tomonidan belgilanadi.

37. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi majlisidagi barcha ishtirokchilarga uni lozim darajada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va unda olib chiqilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlislarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda ishtirok etish uchun yetarli darajada vaqt ajratishlari lozim.

38. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisi zarur hollarda, biroq har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Bunda majlisda majburiy tartibda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: ✓

Boshqaruvning Kompaniyaning rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, Kompaniya faoliyati natijadorligi, biznes-rejasi va faoliyatining samaradorlik muhim ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi, Kompaniya tomonidan amalga oshirilgan xaridlar, Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasi va boshqa tegishli jamg'armalar mablag'lari hamda jalb etilgan qarz mablag'lari samarali foydalanilishi, Kompaniya faoliyati bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan shu'ba xo'jalik jamiyatlari va filiallari (vakolatxonalari) faoliyati, Kompaniya tomonidan tijorat va notijorat maqsadlarining bajarilishi, Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va (yoki) Kuzatuv kengashi tomonidan berilgan topshiriqlarni nazorati va ijrosi hamda Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlariga bevosita va (yoki) bilvosita bog'liq amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisoboti;

Boshqaruv raisi o'rinbosarlari va muhim ahamiyatga ega rahbarlarning Kompaniya faoliyatining muvofiqlashtiradigan yo'nalishlari bo'yicha hisoboti;

Ichki audit xizmatining hisoboti;

Kompaniyaning ichki nazoratiga mas'ul tarkibiy bo'linmalari hisoboti;

Kuzatuv kengashining qo'mitalari tomonidan ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha xulosa va tavsiyalari. ✓

39. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisi o'tkazish sanasi, vaqti va joyi haqidagi xabar Kuzatuv kengashi raisi yoki uning topshirig'i bilan Korporativ maslahatchi tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolariga yuboriladi.

40. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Kompaniya Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lmasligi kerak.

41. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Kompaniya Ustavida nazarda tutilgan miqdorning 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Kompaniya Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

42. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bundan Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq bir ovozdan qabul qilinadigan masalalari mustasno.

43. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

44. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Kompaniya Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

45. Kompaniya Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi.

46. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi Kompaniya bilan o'zi o'rtasida yoki o'ziga aloqador shaxs o'rtasida tuzilgan yoki tuziladigan bitim masalasi ko'rilyotgan Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisida hozir bo'lmasligi, Kuzatuv kengashi qabul qiladigan qarorga ta'sir ko'rsatishga urinmasligi kerak.

47. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma Kuzatuv kengashi kotibi tomonidan yuritiladi.

Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi.

48. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

qabul qilingan qarorlar.

49. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

50. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Kompaniyaning Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Kompaniyaning Boshqaruviga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

51. Kompaniya Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Kompaniya Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir

ovozdan qabul qilinishi mumkin. Bunda Kuzatuv kengashining majlisida hozir bo'lmagan Kuzatuv kengashi a'zosining majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha yozma tarzda bergan fikri inobatga olinadi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (telefon, elektron aloqa, ijtimoiy tarmoqlarning messenjerlari va h.k.) foydalangan holda Kuzatuv kengashi a'zosining yozma fikri tezkor tarzda yo'llanadi va olinadi.

52. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisi sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazilgan taqdirda, majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi.

53. Kompaniya Boshqaruvining har chorakda hisobotini eshitish bo'yicha Kuzatuv kengashining majlislarini sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

54. Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan videokonferensiya aloqa tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib onlayn tarzda o'tkazilishi mumkin. Bunda majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari kun tartibidagi masalalarni muhokama qiladi va ular bo'yicha ovoz beradi.

55. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan videokonferensiya aloqa tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib onlayn tarzda o'tkazilgan taqdirda, majlis bayonnomasida bu haqda ko'rsatiladi va mazkur majlis sirtidan ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan deb e'tirof etilmaydi.

7-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining xuquqlari va majburiyatlari

56. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi xuquqlarga ega:

Kompaniya Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, ish tartibiga muvofiq ajratilgan vaqt doirasida majlisda muhokama qilinayotgan masala bo'yicha so'zga chiqish;

Kuzatuv kengashi qaroriga asosan, Kompaniyaning muayyan davrdagi faoliyati natijalari, Kompaniyani rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

qonunchilik, Kompaniya ichki me'yoriy hujjatlari va o'zlari bilan tuzilgan shartnomada (kelishuvda) o'rnatilgan tartibda haq olish va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari uchun kompensatsiya olish;

Kompaniyaga, shuningdek uning shu'ba va tobe yuridik shaxslariga oid har qanday axborot (hujjat va materiallar)ni Kompaniya Boshqaruvidan talab qilish va olish;

kun tartibidagi masalalar, qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Kuzatuv kengash majlisi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritish uchun masalalar taklif qilish;

Kuzatuv kengashi va Kompaniyaning boshqa kollegial organlari majlislari bayonnomalari bilan tanishish va ularning nusxalarini olish.

qonunchilikda, Kompaniyaning Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

57. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Kompaniyaning samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Kompaniya Boshqaruvi a'zolari o'rtasida vakolatlarining hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta'minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilash hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshirish;

Kompaniyaning oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashish hamda o'z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog'ida Kompaniyaning va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olish;

Kompaniya bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali Kompaniyaning xabardor etish;

o'z vakolatlarini Kompaniya aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Kompaniyaning manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona ish tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi Kompaniya hujjatlarini oshkora qilmaslik;

o'z mavqeini va Kompaniya faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymaslik;

o'z lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Kompaniya manfaatlarini yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirish;

Kompaniya Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislari bayonnomalarini sababsiz o'z vaqtida rasmiylashtirilmaslikka va (yoki) izoh bilan imzolanishiga yo'l qo'ymaslik;

qonunchilikda, Kompaniyaning Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

58. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa Kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda Kuzatuv kengashini yoki Korporativ maslahatchini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli.

59. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan u yoki bu qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatganlik uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

60. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi fidutsiar majburiyatlarni bajarishlari lozim:

jonkuyarlikni namoyon qilish majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida vijdonan va jonkuyarlik asosida harakat qilish;

sodiqlikni namoyon qilish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zosi sifatida birinchi navbatda Kompaniya manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilish;

lozim darajada ko'zdan kechirishlikni namoyon qilish majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zolaridan Kompaniyaga nisbatan qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish;

mustaqil mulohazadan foydalanish majburiyati – Kuzatuv kengashi a'zosidan qarorlarni mustaqil, shaxsiy va boshqa manfaatlarni inobatga olmagan holda qabul qilish.

61. Kuzatuv kengashi a'zolari Kompaniyaning imkoniyatlari (Kompaniyaning mulkiy va nomulkiy huquqlari, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlari, faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborotlar)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emaslar.

62. Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilayotganda Kuzatuv kengashi ularni oldindan ko'rib chiqadi va Kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha saylangan a'zolari ular bo'yicha ovoz berish tartibi to'g'risidagi takliflarni davlat ulushiga nisbatan aksiyador bo'lgan Toshkent shahri hokimligiga taqdim etadi:

sof foydani taqsimlash va uning bir qismini dividendlarga yo'naltirish;

Kompaniyaning qayta tashkil etish yoki tugatish;

shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

tashkiliy tuzilmani tasdiqlash;

Kompaniyaning Boshqaruvini saylash, tayinlash, yollash, uning vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish;

e'lon qilingan aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;

aksiyalarni bo'lish va konsolidatsiyalash;

Kompaniyaning ustav fondi (ustav kapitali) miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish;

mulkni garovga berish;

yirik bitim tuzish yoki Kompaniyaning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish.

8-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

63. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Kompaniyaning manfaatlarini ko'zlab ish tutadi hamda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

64. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Kompaniya oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

65. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari Kompaniya va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka, Kompaniya Ustavi va mazkur Nizomga muvofiq javobgar bo'ladilar.

66. Kompaniyaga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

67. Kompaniya yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Kompaniyaga yetkazilgan zararlarning o'rmini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

68. Kompaniyaning Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilar natijasida Kompaniyaga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalq'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

qonunchilikda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

Kompaniyaga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Kompaniya bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

9-bob. Kompaniya aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish

69. Kompaniya aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish Kuzatuv kengashi tomonidan:

Kompaniya faoliyatini aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorlanish va o'tkazilishini nazorat qilish;

ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarish va boshqa usullar bilan ustav kapitalidagi ulushlar o'zgartirilganda aksiyadorlar huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik;

Kompaniyaning samarali dividend siyosatini belgilangan muddatda ishlab chiqilishini nazorat qilish va oldindan kelishish;

Kompaniya aksiyadorlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

Kompaniya Boshqaruvining noqonuniy va asoslanmagan xatti-harakatlari ustidan aksiyadorlarning takliflari va shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10-bob. Kuzatuv kengashining qo'mitalari

70. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Kompaniyaning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etiladi.

71. Kompaniyada Kuzatuv kengashi quyidagi qo'mitalari majburiy tartibda tashkil etiladi:

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi;

Audit qo'mitasi;

Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

72. Barcha qo'mitalarning faoliyati tarkibi, vakolatlari, ish tartibi hamda a'zolarining huquq va majburiyatlari kabi qoidalarni o'z ichiga olgan Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

73. Kompaniya Kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi raisi uning mustaqil a'zolari orasidan tayinlanadi.

74. Kompaniya Kuzatuv kengashi qo'mitalari tarkibi Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'ladi. Zarur hollarda, qo'mitalar ishiga Kompaniya Boshqaruv a'zolari, xodimlari va tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.

11-bob. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi

75. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash Kompaniyaning "Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida" Nizomiga asosan amalga oshiriladi.

76. Kuzatuv kengash a'zolariga haq to'lashda Kompaniya faoliyatining samaradorligi va korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari ko'zda tutiladi.

12-bob. Yakuniy qoidalar

77. Mazkur Nizom Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

78. Mazkur Nizomga Kompaniya Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

79. Mazkur Nizomda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

80. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.

81. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.